

"Sehrgar va Uning Ajoyib Ixtirosi"



Frank Baum

Kamolova Rushana

tomonidan

Tarjima qilindi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

rushanakamolova005@gmail.com



Qadim zamonlarda ko'p qavatlari uylarning eng yuqori qismida mohir bir sehrgar yashardi. U ko'p vaqtini o'yga botgancha, o'qib izlanishga sarflardi. Shunday bir

yetuk sehrgar ediki, uning sehrgarlik haqida bilmagan narsalarini bilish qiyin edi. Chunki u o‘zidan oldin yashagan barcha sehrgarlarning barcha kitoblari va retseptlariga ega edi. Va bundan tashqari u o‘zi ham bir nechta sehr-jodu, sehrgarlik ta’limotlarini ixtiro qilgan edi.

Ushbu maqtovga sazovor inson to‘laqonli baxtli bo‘lardi, agar uning izlanishlariga to‘sinqilik qiluvchi ko‘plab bezovtaliklar bo‘lmaganda edi. Unga turli muammolari bo‘yicha maslahat so‘rab kelgan odamlar (garchi bu muammolar uning e’tiborini tortmasa ham), shuningdek muz sotuvchi, sutchi, novvoyning bolasi, kir yuvuvchi va yeryong‘oq sotuvchi ayolning eshikni qattiq taqillatishlari halaqit berardi. U bu odamlardan hech biri bilan ham ishlamas edi, lekin ular har kuni eshigini taqillatib u- bu bo‘lmag‘ur masalalar haqida gaplashmoqchi bo‘lar yoki unga o‘z mahsulotlarini sotishga harakat qildi. Endigina chuqur qiziqib kitob o‘qiyotganida yoki sehrgarlik qozonini qaytayotganini berilib kuzatayotgan paytida eshikning taqillashi eshitilardi. Kutilmaganda tashrif buyuruvchi mehmonlarni kuzatgandan so‘ng, har doim o‘ylagan fikrlarini yo‘qotganini yoki tayyorlayotgan aralashmasini buzib qo‘yanini aniqlardi.

Kunlardan bir kuni bu bezovtaliklar uning g‘azabini qo‘zg‘adi va u eshigiga odamlarni yaqinlashtirmaslik uchun it boqishga qaror qildi. Ammo u itni qayerdan olishni bilmas edi. Shu payt undan keyingi uyda unga biroz tanish bo‘lgan, qizdirilgan shishaga puflab shakl beruvchi bir kambag‘al odam yashashini eslab, undan maslahat olmoqchi bo‘ldi.

Shunday qilib, sehrgar uning xonasiga borib undan:

- " Itni qayerdan topsam bo‘ladi?" - deb so‘radi.
- " Qanday turdag'i itni izlayapsiz?" - deb so‘radi shisha puflovchi.

"Yaxshi bir it. Shunday it bo‘lsinki, eshigim oldiga odamlar kelganda hurib, ularni ketkazib yuborsin. Shunday bo‘lsinki, uni saqlashda qiyinchilik tug‘dirmaydigan va ovqatlanishni kutmaydigan bo‘lsin. Burgasi yo‘q, odobli va toza yuradigan, gapirsam, buyruqlarimni bajaradigan bo‘lsin. Qisqasi, yaxshi it bo‘lsin." - dedi sehrgar.

" Bunday itni topish qiyin," - deb javob berdi shisha puflovchi, u ayni paytda moviy shishadan gulqozon yasash bilan band edi. Uning ichida esa pushti shisha atirgul butasi, yashil shisha barglar va sariq shisha atirgullar bor edi.

Sehrgar uning harakatlarini o‘ychanlik bilan kuzatardi.

- " Nega menga shishadan it yasab berolmaysiz," - deb so‘radi u birozdan so‘ng.
- " Albtta, yasab berolaman," - dedi shisha puflovchi, lekin u odamlarni hurib hayday olmaydi, buni bilasiz.

"Hechqisi yo'q, men bu muammoni osongina hal qilaman," — deb javob berdi sehrgar.

— "Agar men shisha itni hurishga majbur qila olmasam, juda nochor sehrgar bo'lib chiqaman."

"Juda yaxshi, agar sizga shisha it kerak bo'lsa, men mammuniyat bilan uni sizga yasab beraman. Faqat, buning evaziga mening mehnatim haqqini to'lashingiz kerak."

"Albatta," — rozi bo'ldi sehrgar. — "Lekin menda siz aytagan o'sha jirkanch narsa — pul yo'q. Iotasangiz, sizga buyumlarimdan birini almashish evaziga to'lashim mumkin."

Shisha puflovchi bir lahza o'ylanib qoldi.

"Menga revmatizmni davolaydigan biror narsa bera olasizmi?" — deb so'radi u.

"Albatta , jonim bilan," — dedi sehrgar.

"Demak, kelishdik. Men itni hoziroq yasashni boshlayman. Qanday rangdagi shishadan foydalansam, sizga maql?" - so'radi u.

"Pushti yoqimli rang," — dedi sehrgar, — "va bu rang it uchun noodatiy, shunday emasmi?"

"Juda ham," — deb javob berdi shisha puflovchi, — "lekin u pushti bo'ladi, istaganingiz kabi".

Shunday qilib, sehrgar o'z ishiga qaytdi, shisha puflovchi esa it yasashga kirishdi.

Ertasi kuni ertalab shisha puflovchi sehrgarning xonasiga shisha itni qo'ltig'iga qisgan holda kirib keldi va uni ehtiyyotkorlik bilan stol ustiga qo'ydi. It chiroyli pushti rangda bo'lib, usti mayin to'qilgan shishadan yasalgan edi. Bo'yniga burama ko'k shisha tasma o'ralgan, ko'zлari esa qora shishadan yasalgan bo'lib, odamlarnikiga o'xshab aqlli chaqnab turardi.

Sehrgar shisha puflovchining mahoratidan mamnun bo'lib, darhol unga kichik shisha idish uzatdi.

"Bu sening revmatizmingni davolaydi," — dedi u.

"Lekin bu idish bo'sh-ku!" — deb e'tiroz bildirdi shisha puflovchi.

"Voy, yo'q; uning ichida bitta tomchi suyuqlik bor," — deb javob berdi sehrgar.

Birgina tomchi mening revmatizmni davolaydimi?"- hayron bo'lib so'radi shisha puflovchi.

"Albatta. Bu ajoyib dori. Idishdag'i bitta tomchi suyuqlik insoniyatga ma'lum bo'lgan har qanday kasallikni darhol davolaydi. Shuning uchun u ayniqsa revmatizm uchun juda foydali.

Lekin uni ehtiyot qiling, chunki bu dunyodagi yagona tomchi va men uning qanday tayyorlanish retseptini unutib qo'ydim."

"Rahmat, sizga"- shisha puflovchi minnatdorchilik bildirib xonasiga qaytdi.

Shunda sehrgar sehrli duo o'qib, sehrgarlarga xos murakkab so'zlarni g'o'ldiradi va shisha it ustiga sehrli tayoqchasini qo'ydi. Shundan so'ng kichkina hayvoncha avval dumini u yoqdan bu yoqqa likillatdi.

Keyin u chap ko'zini tushungan holda qisdi va nihoyat, qo'rqinchli tarzda hurishni boshladi—albatta, ovoz pushti shisha itdan chiqayotganini hisobga olsak, bu juda ham g'ayrioddiy edi.

Sehrgarlarning san'ati deyarli hayratlanarli bo'lib tuyuladi; albatta, agar siz o'zingiz ham bu ishlarni uddalay olsangiz, unda bunday mo'jizalarga hayron qolishingizga hojat yo'q.

Sehrgar o'z sehrining muvaffaqiyatidan maktab o'qituvchisi singari mamnun bo'ldi, garchi u bundan hayratga tushmagan bo'lsa ham. U darhol itni eshik tashqarisiga qulay joyga o'rnatib qo'ydi, shunda it kim eshikni taqillatishga jur'at etsa, hurib, egasining o'qishlariga halaqit beruvchilardan himoya qilardi.

Shisha puflovchi xonasiga qaytgach, sehrgarning mo'jizaviy dori tomchisini darhol ishlatmaslikka qaror qildi.

"Bugun revmatizmim ancha yaxshi," — deb o'yladi u, — "shuning uchun men bu dori tomchisini juda og'ir kasal bo'lganimda ishlatganim ma'qul bo'ladi. U o'shanda menga ancha foyda beradi."

Shunday qilib, u shisha idishni shkafga qo'yib, yana shishadan atirgul yasashga kirishdi. Birozdan so'ng, dorini uzoq saqlash mumkinmi yoki mumkin emasligi haqida o'ylab qoldi va bu haqida sehrgardan so'rashga qaror qildi.

Lekin u sehrgarning eshigiga yetib borganda, shisha it shunchalik vahshiylarcha hurdiki, u eshikni taqillatishga jur'at eta olmadi va shosha-pisha o'z xonasiga qaytib ketdi. Darhaqiqat, bechora odam o'zi shunchalik ehtiyotkorlik va mahorat bilan yasagan itning unga do'stona emas balki, shunchalik yomon munosabatda bo'lganidan ancha ranjidi.

Ertasi kuni ertalab, u gazetani o'qiyotganida, shaharning eng boy yosh xonimi, chiroyli Mydas xonimning juda og'ir kasallanganini va shifokorlarning uning tuzalishiga umid qoldmaganini yozgan maqolani ko'rdi.

Shisha puflovchi nihoyatda kambag'al, mehnatkash va oddiy qiyofaga ega bo'lsa ham, juda zukko odam edi. U birdaniga o'zining qimmatbaho dorisini eslab uni o'z kasalligini davolashdan ko'ra yaxshiroq maqsadda ishlatishga qaror qildi.

U eng yaxshi kiyimlarini kiyib, sochlarini taradi, mo‘ylovlarini tekisladi, qo‘llarini yuvdi va galstugini bog‘lab oldi. Poyabzallarini tozalab, yengil yelkasini artdi va sehrli dorining shisha idishini cho‘ntagiga soldi. Keyin eshigini qulflab pastga tushdi va boy Mydas xonim yashaydigan ulug‘vor saroy sari yo‘l oldi.

Saroy xizmatchisi eshikni ochib, darrov gap boshladi:

"Sovun kerak emas, suratlar kerak emas, sabzavotlar kerak emas, soch yog‘i kerak emas, kitoblar kerak emas, qabartma kukuni kerak emas. Yosh xonimimiz o‘layapti, dafn marosimi uchun hamma narsa yetarli."

Shisha puflovchi o‘zini oddiy ko‘cha sotuvchisi deb o‘ylashganidan xafa bo‘ldi.

"Do‘stim," — deb faxr bilan gap boshladi u, lekin xizmatchi uni yana bo‘lib, dedi:

"Qabr toshlari ham kerak emas; oilaviy qabriston bor va yodgorlik allaqachon o‘rnatilgan."

"Agar menga gapistishga ruxsat bersangiz, qabristonga ham hojat qolmaydi," — dedi shisha puflovchi.

"Shifokorlar kerak emas, janob. Ular yosh xonimimizdan umidlarini uzishdi, xonim esa shifokorlardan," — xotirjam ohangda davom etdi xizmatchi.

"Men shifokor emasman," — javob berdi shisha puflovchi.

"Boshqalar ham emas. Ammo sizning ishingiz nima?"

"Men yosh xonimingizni sehrli aralashma yordamida davolash uchun keldim."

"Marhamat, ichkariga kiring, zalda o‘tirib turing. Uy boshqaruvchisi bilan gaplashib kelaman," — dedi xizmatchi, endi ancha xushmuomalalik bilan.

Shunday qilib, xizmatchi uy boshqaruvchisi bilan gaplashdi, uy boshqaruvchisi bu haqda boshqaruvchi yordamchisiga aytdi, boshqaruvchi yordamchisi oshpaz bilan maslahatlashdi, oshpaz esa xonimning xizmatkorini o‘pib, uni begona odam bilan gaplashishga yubordi. Juda boy kishilar, hatto o‘lim oldida ham, shunday murakkab rasm-rusumlarga o‘ralgan bo‘ladilar.

Xizmatkor qiz shisha puflovchidan uning xonimni davolay oladigan dori olib kelganini eshitib, dedi:

"Kelganingiz yaxshi bo‘ldi."

"Lekin," — dedi shisha puflovchi, — "bir shartim bor, agar men xonimingizni davolab, sog‘lom qilib qo‘ysam, u menga turmushga chiqishi kerak."

"Men bu haqda so‘rab, uning rozi yoki yo‘qligini bilib kelaman," — dedi xizmatkor qiz va darhol Mydas xonim bilan maslahatlashgani ketdi.

Yosh xonim bir lahma ham ikkilanmadni.

"Men o‘lishdan ko‘ra har qanday odamga turmushga chiqishni maql ko‘raman!" — deb qichqirdi u. — "Uni darhol bu yerga olib keling!"

Shunday qilib, shisha puflovchi xonimning oldiga kelib, sehrli tomchini ozgina suvga qo'shib bemorga ichirdi. Oradan bir daqqa o'tmay, Mydas xonim umrida hech ham kasal bo'lgan kabi soppa-sog'lom bo'lib qoldi.

"Voy dod!" — deb hayratlandi Mydas xonim. — "Men bugun kechqurun Fritterlar oilasining qabuliga borishim kerak! Mariya, mening marvarid rangidagi ipak ko'ylagimni olib kel, hoziroq tayyorgarlikka kirishishimiz kerak. Shuningdek, dafn marosimi uchun buyurtma qilingan gullar va qora liboslaringizni bekor qilishni unutmang".

"Lekin, Mydas xonim," — e'tiroz bildirdi yonida turgan shisha puflovchi, — "siz agar sizni davolasam, menga turmushga chiqishga va'da bergandingiz."

"Bilaman," — dedi yosh xonim, — "lekin jamiyat gazetalarida to'g'ri e'lon berish va to'y taklifnomalarini tayyorlash uchun vaqt kerak. Ertaga keling, bu haqda gaplashamiz."

Shisha puflovchi unga er sifatida unchalik yoqmagan edi, shuning uchun uni vaqtincha yo'qotish uchun bahona topilganidan mammun bo'ldi. Shuningdek, u Fritterlar oilasining marosimini o'tkazib yuborishni istamasdi.

Ammo shisha puflovchi uyiga xursand bo'lib qaytdi, chunki u o'z rejasining muvaffaqiyatli bo'lganiga ishonardi va tez orada boy xotin olib, umrining qolgan qismini hashamat ichida o'tkazishiga amin edi.

Xonasiga yetib kelishi bilan qilgan birinchi ishi — shisha puflash asboblarini chil-chil sindirib, ularni derazadan uloqtirish bo'ldi.

Keyin u o'zining bo'lajak xotinining pulini qanday qay yo'llar bilan sarflash haqida o'y surib, dam oladigan kreslosiga borib o'tirdi.

Ertasi kuni u Mydas xonimning oldiga bordi. Yosh xonim esa go'yo hech qachon kasal bo'lmasandek xursand holda roman o'qib, shirinliklar shokoladli konfetlar yeb o'tirardi.

"Meni davolagan sehrli aralashmani qayerdan oldingiz?" — deb so'radi yosh xonim.

"Bir dono sehrgardan," — dedi shisha puflovchi va, xonim qiziqib qoladi deb o'ylab, sehrgar uchun shisha it yasagani, uning qanday hurishi va hech kimni bezovta qilishga qo'ymagani haqida hikoya qilib berdi.

"Qanday ajoyib!" — dedi u. — "Men ham doimo hura oladigan shisha itga ega bo'lishni orzu qilardim."

"Lekin dunyoda faqat bitta shunday g'aroyib it bor," — dedi shisha puflovchi, — "va u ham sehwargarga tegishli mulk."

"Uni men uchun sotib olishingizni istayman ,," — dedi xonim.

"Sehrgar pulga qiziqmaydi," — javob berdi shisha puflovchi.

"Unday bo'lsa, agar menga uylanishni xohlasangiz, men uchun o'g'irlab kelishingiz kerak," — dedi xonim qat'iy ohangda. — "Men endi hora oladigan shisha itsiz bir kun ham baxtli yashay olmayman."

Shisha puflovchi bu gapdan juda tashvishga tushdi, lekin qo'lidan kelganini qilishini aytdi. Axir, erkak kishi har doim bo'lajak xotinini xursand qilishga harakat qilishi lozim, Mydas xonim esa unga bir hafta ichida turmushga chiqishga va'da bergen edi.

Uyiga qaytayotib, u katta og'ir xalta sotib oldi. Sehrgarning eshigi yonidan o'tayotganda, pushti shisha it yugurib chiqib, unga hurishga tushdi. Shu zahoti u xaltani itning ustiga tashlab, og'zini mahkam ip bilan bog'ladi va uni o'z xonasiga olib ketdi.

Ertasi kuni u It solingan xaltani bir xabarchi bola orqali Mydas xonimga yubordi va unga o'zining hurmat-ehtiromini yetkazishni tayinladi. Keyin esa, tushdan keyin, o'zi ham uning oldiga bordi. U shisha itni o'g'irlab kelgani uchun xonim undan minnatdor bo'lib, xursandchilik bilan kutib oladi, deb o'yagan edi.

Ammo u eshik oldiga kelib, saroy xizmatchisi eshikni ochganda, shisha itning birdan yugurib chiqib, unga qattiq hurishni boshlaganini ko'rib, hayratdan dong qotdi.

"Itingizni to'xtating!" — qo'rquv bilan qichqirdi shisha puflovchi.

"Men hech narsa qila olmayman, janob," — javob berdi xizmatchi. — "Yosh xonimimiz siz har safar kelganingizda shisha it sizga hurishi kerak deb buyurgan. Yaxshisi, ehtiyot bo'ling, janob," — deya qo'shimcha qildi u, — "agar u sizni tishlasa, shishafobiya²ga chaliningiz mumkin!"

Bu gap shisha puflovchini shu qadar qo'rqtib yubordiki, u tezda orqaga burilib, shoshilib ketdi.

Biroq, u yo'lda bir dorixonaga to'xtadi va oxirgi tanga pulini telefon budkasiga tashlab, shisha it tishlamasligi uchun Mydas xonim bilan shu yo'l bilan gaplashishga qaror qildi.

"Menga Pelf 6742-ni ulang!" — dedi u.

"Alo! Kim bu?" — degan ovoz eshitildi.

"Men Mydas xonim bilan gaplashmoqchiman," — dedi shisha puflovchi.

Birozdan so'ng mayin ovoz javob berdi:

"Bu Mydas xonim. Nima gap?"

"Nega menga bunchalik shafqatsiz munosabatda bo'ldingiz buning ustiga shisha itni menga qarshi qayratib qo'ydingiz?" — deb so'radi bechora yigit.

"Rostini aytsam," — dedi xonim, — "menga sizning tashqi ko'rinishingiz yoqmaydi. Yuzingiz oqarib, bo'shashgan, sochlaringiz dag'al va uzun, ko'zlariningiz kichik va qizarib ketgan, qo'llaringiz katta va dag'al, oyoqlaringiz esa qiyshiq."

"Lekin men tashqi ko'rinishimni o'zgartira olmayman!" — deb yalindi shisha puflovchi. — "Axir, siz menga turmushga chiqishga va'da bergandingiz."

"Ha va'da bergen edim. Ammo chiroyliroq bo'lganingizda, va'damni bajarardim," — dedi Mydas xonim. — "Lekin bunday holatingizda siz menga mos emasligingiz aniq. Agar mening uyimga yaqinlashsangiz, shisha itni ustingizga qo'yib yuboraman!"

Shundan so'ng u telefonni qo'yib qo'ydi va boshqa hech narsa demadi.

Bechora shisha puflovchi yuragi g'am-g'ussa bilan to'lib, uyiga qaytdi va o'z joniga qasd qilish uchun karavot ustuniga arqon bog'lay boshladi.

Shu payt eshik taqilladi. Eshikni ochganida, qarshisida sehrgar turardi.

"Men itimni yo'qotib qo'ydim," — dedi sehrgar.

"Rostdanmi?" — dedi shisha puflovchi, arqonga tugun bog'lab turib.

"Ha, kimdir uni o'g'irlab ketganga o'xshaydi."

"Bu juda yomon bo'libdi," — dedi shisha puflovchi beparvolik bilan.

"Siz menga yana bitta yasab bersangiz yaxshi bo'lardi," — dedi sehrgar.

"Lekin men boshqa yasay olmayman; asboblarimni tashlab yuborganman."

"Unda men nima qilay?" — so'radi sehrgar.

"Bilmayman, balki yo'qolgan itingiz uchun mukofot e'lon qilarsiz."

"Lekin menda pul yo'q-ku," — dedi sehrgar.

"Unday bo'lsa, o'zingiz yaratgan sehrli dorilaringizdan birontasini mukofot sifatida e'lon qiling," — dedi shisha puflovchi, arqonni bo'ynidan o'tkazish uchun ilgak shaklida bog'lab turib.

"Menda faqat bittagina ortiqcha narsa bor," — dedi sehrgar o'ychanlik bilan, — "bu ham bo'lsa Go'zallik kukuni."

"Nima?!" — deb qichqirdi shisha puflovchi, arqonni yerga tashlab. — "Sizda rostan ham shunday narsa bormi?"

"Ha, albatta. Kim bu kukunni ishlatsa, dunyodagi eng go'zal odamga aylanadi."

"Agar shu kukunni mukofot sifatida taklif qilsangiz," — dedi shisha puflovchi ishtiyoy bilan, — "men itingizni topishga harakat qilaman, chunki men hamma narsadan ko'ra ko'proq go'zal bo'lishni orzu qilaman."

"Lekin ogohlantirib qo'yaman, bu go'zallik faqat teri yuzasida bo'ladi," — dedi sehrgar.

"Buni menga ahamiyati yo'q, har qanday turi ham menga mos keladi," — xursand bo'lib javob berdi shisha puflovchi. — "Axir, terimni yo'qotganidandan keyin go'zal bo'lishimning ahamiyati qolmaydi."

"Unday bo'lsa menga itimni qayerdan topishim mumkinligini aytin, shunda sizga kukunni beraman," — deb va'da berdi sehrgar.

Shunda shisha puflovchi tashqariga chiqib, go'yoki itni izlayotgandek har yondan izlab yurdi. Ko'p o'tmay qaytib kelib, dedi:

"Itingizni topdim. Uni Mydas xonimning qasridan topishingiz mumkin."

Sehrgar darhol borib, bu gap rostmi yoki yolg'onligini aniqlash uchun saroyga bordi. Haqiqatan ham, shisha it tashqariga yugurib chiqib, unga hurishni boshladi.

Shunda sehrgar qo'llarini yoyib, sehrli duoni o'qidi va it shu zahoti qattiq uyquga ketdi. Keyin u itni ko'tarib, ko'p qavatli uyning eng yuqori qavatidagi o'z xonasiga olib ketdi.

Keyin sehrgar Go'zallik kukunini shisha puflovchiga mukofot sifatida taqdim etdi. U darhol kukunni ichgan zahoti dunyodagi eng ko'rakam, kelishkan erkakka aylandi.

Keyingi safar u Mydas xonimning uyiga borganida, eshik oldida uni hurib quvib soladigan it yo'q edi. Yosh xonim uni ko'riboq uning go'zalligiga oshiq bo'lib qoldi.

"Qani edi, sen graf yoki shahzoda bo'lganiningda edi," — u xo'rsindi, — "sen bilan mammuniyat bilan turmush qurargan bo'lardim."

"Lekin men ham shahzodaman," — deb javob berdi shisha puflovchi. — "shisha puflovchilar shahzodasi!"

"Aaaa!" — dedi u. — "Unday bo'lsa, agar haftasiga to'rt dollar nafaqa olishga rozi bo'lsang, hoziroq to'y taklifnomalarini chop ettirishga buyurtma beraman."

Erkak bir oz ikkilanib qoldi, keyin o'z yotoqxonasi ustunida osilib turgan arqonni eslab, bu shartlarga rozi bo'ldi.

Shunday qilib, hikoya so'ngida ular birga turmush qurishdi. Lekin kelin erining go'zalligiga nihoyatda hasad qilar va uni har xil qiynoqlarga solib haqiqiy it hayotini yashartirardi. Bunga javoban, shisha puflovchi ham ataylab qarzga botib xotinining hayotini azobga aylantirardi. Bu holat umrlarining oxirigacha davom etibdi.

Shisha itga kelsak, sehrgar yana o'z sehrlari bilan unga jon ato etib hurishga majbur qilgandi va eshigi oldiga qo'ygandi. O'ylashimcha, u hanuzgacha o'sha yerda. Bu esa biroz achinarli, chunki men sehrgar bilan uchrashib, ushbu hikoyaning axloqiy mazmuni haqida maslahatlashishni istar edim.

Qissadan hissa shuki aziz o'quvchi, haqiqiy baxt tashqi go'zallikda emas — Shisha puflovchi go'zallik orzusida edi, lekin uni qo'lga kiritgach ham baxtli bo'la olmadi.

Tashqi ko‘rinish vaqtinchalik bo‘lishi mumkin, lekin insonning asl qadri uning ichki dunyosida. Yolg‘on va ayyorlik bilan erishilgan narsalar baribir baxt keltirmaydi – U Mydas xonimni aldab uylangan bo‘lsa ham, oxir-oqibat ikkalasi ham baxtsiz bo‘lib qoldi. Halollik va samimiyat har doim mustahkam va baxtli munosabatlarning asosi bo‘lib qoladi.

1. Revmatizm - bu suyaklar, bo‘g‘imlar, mushaklar va biriktiruvchi to‘qimalarga ta’sir qiluvchi kasalliklarning umumiy nomi.

2. Shishafobiya (glassophobia) - bu omma oldida gapirishdan qo‘rqish yoki sahna qo‘rquvi deb ataladigan psixologik holat.